

## THE IMPORTANCE OF EXTRACURRICULAR ACTIVITIES IN PHYSICS FOR SCHOOL STUDENTS

**S. X. Mirzaqandova**

Navoi State Pedagogical Institute, student of "Methods of teaching physics and astronomy"

**N. N. Rashidova**

She is a student of "Technological Education" at Navoi State Pedagogical Institute

**Abstract:** Science clubs, harmoniously developed generation centers, sports schools, music schools, young technicians, young naturalists, young tourists 'clubs and other out-of-school institutions help to organize students' extracurricular activities.

**Keywords:** Extracurricular activities, school, physics, education, poetry, event, knowledge

## MAKTAB O'QUVCHILARI UCHUN FIZIKADAN SINFDAN TASHQARI ISHLARNING AHAMIYATI

**S. X. Mirzaqandova**

Navoiy Davlat Pedagogika Instituti "Fizika va astronomiya o'qitish metodikasi" ta'lim yo'nalishi talabasi

**N. N. Rashidova**

Navoiy Davlat Pedagogika Instituti "Texnologik ta'lim" yo'nalishi talabasi

**Annotatsiya:** O'quvchilarning sinfdan tashqari ishlarini tashkil etishda fan to'garaklari, barkamol avlod markazi, sport maktabi, musiqa maktablarida, yosh texniklar, yosh tabiatshunoslar, yosh sayyohlar klubi va maktabdan tashqari boshqa muassasalar katta yordam beradi.

**Kalit so'zlar:** Sinfdan tashqari ishlar, maktab, fizika, tarbiya, she'r, tadbir, bilim

Sinfdan tashqari ishlar - umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quv tarbiyaviy ishining tarkibiy qismi, o'quvchilarning bo'sh vaqtini tashkil etish shakllaridan biri. Sinfdan tashqari ishlari. O'quvchilarni barkamol shaxs sifatida shakllantirish va ularni hayotga tayyorlashda keng imkoniyatlar yaratadi. Sinfdan tashqari ishlariga o'quvchilar bilan o'tkaziladigan va ularga tarbiya hamda bilim berishga qaratilgan turli xil mashg'ulotlar tizimi kiradi. Bunday mashg'ulotlar pedagogik jamoa, sinf rahbari, yoshlar tashkilotlari rahbarligi va bolalarning o'z-o'zini boshqarish tashkilotlari tomonidan darsdan tashqari vaqtda uyushtiriladi.

- Sinfdan tashqari ishlarining asosiy shakllari sifatida ommaviy ishlar:
- maktab klublaridagi tadbirlar, kecha, munozara va tanlovlar o'tkazish, viktorina va ko'rgazmalar uyushtirish, tabiat qo'yniga, maktab va muzeylarga ekskursiyalarga chiqish
- To'garak ishlari:
- o'quvchilarning turli fan to'garaklari, sport seksiyalari, ansambllardagi qatnashishlari
- Mustaqil ishlar:

□ o'quvchilarning sinfdan tashqari o'qishi, kolleksiya to'plashi, texnika, musiqa, tasviriy san'at, chizmachilik va sh.k. bilan mustaqil shug'ullanishini ko'rsatish mumkin.

Xususan fizik topishmoq va she'rlar yodlash orqali o'quvchi fizik jarayonning mohiyatini juda oson va tez anglaydi.

Darslarda xalq maqollari va hayotiy hikoyalardan foydalanish o'quvchilarda milliy madaniyatimizni shakllantirishi bilan bir qatorda fanga bo'lgan qiziqishini ham oshiradi.

1. Suv emas, simdan oqar,  
O't emas, chiroq yoqar. (elektr toki)
2. Oyog'i yo'q ammo u,  
Uzoqlarga ketadi.  
Gap aytib yuborsang,  
Kimga desang eltadi,  
Uchar deb o'ylasangiz.  
Uchishga yo'q qanoti,  
Qani o'ylab ko'ringchi.  
Nimadir uning nomi? (radio)
3. Neki aysang yozadi,  
Qog'oz, qalamsiz chaqqon.  
Xohlasang so'zlaringni,  
Takrorlab berar shu on. (magnitafon)
4. Oppoq sandiq ochildi,  
Olamga nur sochildi. (osmon, Quyosh)
5. Uzoq tog'da o't yonar. (Quyosh)
6. Suvda yotar – suv ichmas,  
Yurganini odam bilmas. (Quyosh)
7. Oltin kelganda, kumush ketar,  
Kumush kelganda, oltin ketar. (Quyosh va Oy)

Fizika fanini topishmoqlar va hayotiy hikoyalar bilan o'qitish jarayonida o'quvchining fizikaga bo'lgan qiziqishi oshishi bilan bir qatorda xotirasi mustahkamlanadi va nutqi ravonlashadi.

### Adabiyotlar ro'yhati

1. "Mo'jiza kitob". T. 2001. 1-tom.
2. "Milliy ensiklopediya". T. 2004. 7-tom.
3. M.Mamadazimov. "Astronomiya". T. 2008.
4. B.F.Izbosarov, O.R.Ochilov, I.R.Kamolov. "Astronomiyadan ma'lumotnoma". Navoiy. 2005.
5. Akhmedovich, M. A., & Fazliddin, A. (2020). Current State Of Wind Power Industry. The American Journal of Engineering and Technology, 2(09), 32-36.
6. Арзикулов, Ф., Мустафакулов, А. А., & Болтаев, Ш. ГЛАВА 9. РОСТ КРИСТАЛЛОВ КВАРЦА НА НЕЙТРОННО-ОБЛУЧЕННЫХ ЗАТРАВКАХ. ББК 60 П75, 139.
7. Мустафакулов, А. А., Арзикулов, Ф. Ф., & Джуманов, А. (2020). Использование Альтернативных Источников Энергии В Горных Районах Джизакской Области Узбекистана. Интернаука: электрон. научн. журн, (41 (170)).

8. Sobirovna, T. R. (2021). Issues of further improvement of water cadastre legislation of Uzbekistan. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(4), 1241-1253.
9. Toshboeva, R., & Tukhtashev, H. (2020). Entrepreneurship and cadastral activity in the sphere of natural resources: Problems and development prospects in the digital economy. *International Journal of Psychosocial Rehabilitation*, 24(S1), 890-898.
10. Нариманов, Б. А. (2020). ВОЗОБНОВЛЯЕМЫЕ ИСТОЧНИКИ ЭНЕРГИИ, ВОПРОСЫ УСТОЙЧИВОСТИ И СМЯГЧЕНИЯ ПОСЛЕДСТВИЙ ИЗМЕНЕНИЯ КЛИМАТА. *Universum: технические науки*, (10-3), 66-70.